

## RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTRISHDA BANKLARNING O‘RNI

**Dovronova Gulnora Nuritdinovna**

UMFT universiteti magistranti

Email: [gulnoradavronova@gmail.com](mailto:gulnoradavronova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda jahon moliya-bank tizimida birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotning elektron to‘lov tizimlari, kriptovalyutalar va vositachilarsiz kreditlash kabi elementlar bozoridagi ulushning shiddatli o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lgan inqilobiy o‘zgarish va ofislari va bankomatlariga ega bo‘lmagan raqamli banklar va moliyaviy muassasalar sonining jadal sur‘atlar bilan o‘shishi kuzatilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli xizmat hisob-kitob bank xizmatlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo.

### KIRISH

Raqamli xizmat ko‘rsatishga to‘la-to‘kis o‘tish nafaqat banklarga, balki xilma-xil bank xizmatlaridan tezkor va qulay tarzda foydalana oladigan iste‘molchilarga ham foyda keltiradi (masalan, harajatlarning pasayishi, muloqot doirasini qamrab olish imkoniyati, moslashuvchanlik, mijozni yaxshiroq bilish). Respublika bank tizimida zamonaviy AKT dasturiy-texnik vositalariga asoslangan innovatsion texnologiyalar faol joriy qilinmoqda. Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” Raqamli iqtisodiyot — bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Bank sohasi bu iqtisodiyotning yangi texnologiyalar juda keng qo‘llanadigan sohasidan biri hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda yangi kompyuter texnologiyalari, kredit kartalari va pul-moliya bozorida muhim innovatsiyalarni joriy etish davri bo‘ldi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, banklar ijtimoiy tarmoqlarga,

mobil internetga va hattoki, onlayn o'yinlar e'tiborini tortadigan yangi reklama kanallarini juda faollik bilan rivojlantirmoqda.

Bank innovatsiyalari - yangi bank mahsulot va xizmatlarining yig'indisi sifatida mijozlarga foyda olishda yordam beradigan yangiliklar kiritishni joriy qilish orqali resurslar salohiyatini shakllantirish va joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish jarayonida qo'shimcha daromad olishga qaratilgan yangi texnologiyalar sohasida bank faoliyatining maqsadi va natijasi haqida sintetik tushunchadir.

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi bevosita uning iqtisodiy va siyosiy kuchiga bog'liqdir. Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, butun dunyoda o'z so'zi va o'z qarashlariga ega bo'lishi ham aynan shu davlatning ham iqtisodiy ham ma'naviy kuchiga chambarchas bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inini esa uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Binobarin, banklarning iqtisodiyotda tutgan roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan, muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi.

### **ASOSIY QISIM**

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning o'rni.

Raqamli iqtisodiyot bo'yicha boshqa rivojlanayotgan davlatlar yetakchilardan o'rtacha 8-10 yilga orqada qolgan. Ammo agarda hech qanday chora-tadbirlar ko'rilmasa, 3-5 yildan so'ng orqada qolish 15-20 yilga ham yetishi mumkin. "Industriya 4.0" konsepsiyasi doirasida ushbu ko'rsatgich milliy iqtisodiyotning investitsion raqobatbardoshlik reytingi ko'rsatgichini aniqlashda asosiylaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bank sohasi dunyo bo'ylab raqamli qurollanish poygasiga kirishgan. 2018-yilda dunyo banklari raqamli banking imkoniyatlari uchun 9.7 mlrd. AQSH dollari miqdorda investitsiya kiritishni rejalashtirgan. Ko'pchilik tijorat banklarida onlayn va mobil bank dasturlarini yaratish va rivojlantirish odatiy bank filiallari va ATMLarni ko'paytirishdan ko'ra muhimroq deb qaralmoqda. Dunyo bo'ylab banklar allaqachon raqamli texnologiyalarga investitsiyalar qanday bo'lishi mumkinligi hamda mijozlarni jalb qilish va qoniqish hosil qilish haqida tushunib yetmoqda. Misol uchun Amerika banki an'anaviy bank filiallariga qaraganda ko'proq onlayn depozitlar qabul qilgan. Bankning Bosh ijrochi direktori Brayn Moynihaning

fikriga ko‘ra, raqamli bank xizmatlariga investitsiya kiritish mijozlarning ehtiyojini qondirishga yordam beradi. Darhaqiqat, “Raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi. Afsus bilan qayd etish lozimki, jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatimiz bu ko‘rsatgich bo‘yicha oxirgi o‘rinlardan birida turadi. Moliyaviy sektorda huddi shu tufayli ro‘y berayotgan salbiy oqibatlarni yengib o‘tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko‘lamda qo‘llashga erishish asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Raqamli banking usullarini qo‘llash, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat berish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5296- sonli farmonil imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozni 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’minlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 12-may kuni “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonga imzo chekdi. Farmon bilan tegishli strategiya va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ham tasdiqlandi. Hujjat asosida kelgusidagi 5 yil davomida bank sohasini o‘zgartirishning konseptual asoslari, tamoyillari va yo‘nalishlari belgilab olindi. Unga ko‘ra, bank sohasida o‘rta muddatli islohotlarning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:**

- sektorni qayta qurish – banklarni o‘zgartirish va xususiylashtirish;
- bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi standartlarini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini va boshqalarni joriy etgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish;

- kadrlar malakasini oshirish.

### **Raqamli iqtisodiyotga turlicha yondashuvlar va berilgan**

V.Ivanov	Raqamli iqtisodiyot – bu bizning voqeligimizni to‘ldiruvchi virtual muhit
R.Mesheryakov	Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan iqtisodiy ishlab chiqarish
A.Kuntsman	Raqamli iqtisodiyot ma’lumot va ma’lumotning moddiy mahsulotlar va xizmatlar-ni ishlab chiqarishda, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan tavsiylanadigan zamonaviy iqtisodiyot turi
R.K.Asanov	Raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni elektron tijorat orqali tarqatish asosida: “elektron mahsulotlarga ixtisoslashgan biznes ishlab chiqarish jarayonlarini va pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi, shuningdek, Internet texnologi-yalardan foydalangan holda mijozlar bilan ishlash va ularni boshqarish bilan shug‘ullanadi

“Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, elektron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shuning uchun banklar uchun katta foyda keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo‘shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo‘lgan elektron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo‘lajak mijozlarni jalb qilish imkonini berdi va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini berdi”. “Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko‘rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo‘linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi”. O‘zbekistonda ilk bor “Anor bank” AJ 2020-yil sentyabr oyidan raqamli bank sifatida birinchi onlayn xizmatlarini ishga tushirgan hamda hozirgi kunda bir qator zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimi yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadi: barcha bank aktivlarining 86% hali davlatga, 70% esa 5 ta davlat banklari (Milliy bank, Asaka bank, Sanoat qurilish bank, Ipoteka bank va Agro bank) ga qarashli. Shuningdek, kreditlarga nisbatan davlat ulushi bo‘lgan bank omonatlarining ulushi 31,5 foizni tashkil etishi qayd etildi. Taqqoslash uchun, xususiy banklarda bu ko‘rsatkich 100% ga teng. Barchamizga a’yonki, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining asosiy maqsadi albatta, jamiyatdan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo'lganligi bois, ma'lum davrda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoj tug'alsa, ayrimlarida aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish siklining turli - tumanligi (qishloq xo'jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag'lar vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomondan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy mablag'larga nisbatan qo'shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag'larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi. Ana shunday jarayonda ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya'ni qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo'jalik subyektlariga qayta taqsimlab beradi. Ko'rinib turibdiki, ushbu munosabatlarni bankdan boshqa birorta moliyaviy tashkilot samarali va tez hal eta olmaydi. Banklarning ushbu o'ziga xos jihati iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi. Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob - kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi. Shu sababli ham banklar iqtisodiyotimizning yetakchi va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Anorbank rivojlanish strategiyasining asosi – mijozlarga yo'naltirilganlik bo'lib, u o'zida bir qator elementlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, sezgirlik va yordam berish istagi, yondashuvning soddaligi, odamlarga hayotda va biznesda bir qadam oldinda bo'lish imkoniyatini berish, har qanday mijozga individual yondashuvni saqlab qolish va ma'lumotlarni qayta ishlashda xavfsizlikni ta'minlash bilan har qanday so'rovni iloji boricha tezroq bajarishga yo'nalganlik.

Ushbu say harakatlar va strategiya natijasi o'laroq 2021-yilda Anorbank quyidagi natijalarga erishdi:

- butun Respublikaga xizmat ko'rsatish boshlandi;
- jamoadagi xodimlar soni 850 taga yetdi;
- mijozlar bazasi 115 000 gacha ko'tarildi, 100 000 bank kartasi chiqazildi va depozit uchun jismoniy shaxslardan 350 mlrd. so'mni jalb qilindi;
- hamkorlari soni 2500 dan oshdi;



– ikki yuzdan ortiq tashkilotlar umumiy hisobda 20 mlrd. so‘m nominalli oylik maoshlarni Anorbank orqali o‘tkazishdi;

– ilovani 270 000 marta yuklab olindi, ilovadan har kuni faol foydalanuvchilarning soni esa 40 000 dan ko‘p.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bank-moliya tizimini shakllantirishda shu jumladan, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari, shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat bank sektorini modernizatsiya qilish bo‘yicha qabul qilingan bir qator oqilona qarorlar o‘z taqbig‘ini topmog‘i lozim. Ana shundagina, banklar tijorat samaradorligini oshirish o‘rta va uzoq muddatli strategiyani shakllantirish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Гончарук С. А. Институционаше аспект развитиуа сегмента розничшх банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хета-гурова - Шахти, 2018. - 183 с
2. Efma-Infosys Finacle Innovation tadqiqoti, 2019 йил.
3. Трофимов Д. В. Конкуренгоспособност розничшх банков [Электроннш ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. - 2013. -№58. - Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. 2020 yil 12 fevral.
5. Enrico Onali, Ramilya Galiakhmetova, Philip Molyneux Giuseppe Torluccio. CEO power, government monitoring, and bank dividends. // Journal of Financial Intermediation. Volume 27, July 2016, Pages 89-117
6. Kunarov R.R. va Bo‘riev J.P. Tijorat banklari dividend siyosati xususiyatlari. // Xalqaro moliya va hisob. №4. 2020 yil.
7. [www.Anorbank.uz](http://www.Anorbank.uz) – “Anor bank” AJning rasmiy sayti
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi